

I

U avval uzoq o'ylandi. Nihoyat, nigohlarini shiftdan tortib olib, oyoqqa ko'tarildi. Stol ustidagi bejirim tugmachani bosib, kotibasiga bosh suratkashni chaqirishni buyurdi. O'zi oppoq qog'ozga apil-tapil allanimalarnidir qayd etdi. So'ng imzo chekib, gazetaning dumaloq muhrini chirolyi qilib tushirdi. Zudlik bilan undan bir nusxa ko'chirma oldi-da, asl nusxasini yirtib, tortmasiga yashirdi. Janob bosh muharrir (yoshi elliklar atrofida, bo'yи o'rtacha, ko'pincha qora kostyum-shim kiyib yuradi, qo'l ostidagi xodimlarni o'z farzandi, jigarbandidek yaxshi ko'radi, baxtini jamoasi baxtida, deb hisoblaydi) ishlarini tinchitishi bilanoq bosh suratkash izn so'rab, eshikdan kirib keldi. Uning ko'zları kirtaygan, qomati bug'doyning somonidek quruq cho'p - qattiqroq shamol tursa pirpirak bo'lib uchib ketadigandek... Uni charchagan odam, desa bo'ladi.

Suratkash (ko'zları katta-katta, yuz tuzilishi cho'zinchoq, labi o'rtacha qalin, tanasining rangi oqish, sochlariq bir-ikkita oq oralagan, so'qqabosh) ixtiyorida bir lahma tinim yo'q va aslida o'sha ixtiyor ham o'ziga вЂњtegishlibвЂќ emas. Hali u viloyatga, hali bu viloyatga yugurgani-yugurgan. Gazeta ham haftasiga besh marotaba chiqadi. O'ttiz ikki sahifalik kattakon nashr uchun har holda chakana emas, asl mehnat talab etiladi. Bosh suratkashning qo'l ostida o'n shogirdi ishlaydi. Baribir, ulkan gazeta uchun buncha suratkash yetarli emas. Chunki ba'zan yigirmata fotodan bor-yo'gвЂћi uch-to'rttasigina Janob bosh muharririga ma'qul kelishi ko'p bor kuzatilgan. Ana shu o'n bir suratkashning ba'zilari olgan suratlar, necha yildan buyon ishlashidan qat'i nazar, biror marotaba ham birinchi sahfada bosilmagani taajjublidir. Biroq bosh suratkash gazetaning suyangan togвЂћilaridan biri.

Tahririyatda eng ko'p gonorar oladigan to'rtta xodim bo'lsa, o'shalarning ichida u ham bor. Axir har bir sonda sahifalarini jonlantirish uchun uning besh-o'ntacha rasmlari qo'yiladi-da.

Janob bosh muharrir chaqirilgan xodimning sumbatiga qarab ham o'tirmay, haligi ko'chirmani uning oldiga tashladi.

To'gвЂћirogвЂћi, dushmani bilan muomala qilayotgandek oldiga otib yubordi. Nima bo'layotganiga tushunmagan suratkash bir lahma qogвЂћozni na olishini, na olmasligini bilolmay ming ahvolga tushdi. Qo'llari qaltirab, xuddi o'z o'limi haqidagi hukmnoman o'qiyotgandek ko'zlarini yana ham kattaroq ochib, qogвЂћozdag'i matnga qaradi. Tok urgandek rangi quv oqarib ketdi. Hamon jim turgan boshliqqa savol alomati bilan tikildi.

- Siz, o'rtoq suratkash, bugundan, shu ondan boshlab bo'shsiz. O'sha eng oxirgi hayfsan qogвЂћoziga shundoqqina imzoingizni qo'yingga, kirgan eshiklariningizdan sekin qayting: to'rt tomoningiz qibla!

Hamon hech narsaga tushunmagan suratkash badanini boshliqqa bildirmay chimchilab ko'rdi, chunonam oгѓbrid, chunonam oгѓbrid - dodlab yuborishiga bir banya qoldi - tushi emas ekan.

- Ha...hali biror marotaba... hay...hayfsan ol...magandim shekilli?!

- Bo'lishi mumkin. To'gвЂћiri, hech qanday qoidabuzarlik qilmadingiz. Hamma qatori shu gazeta istiqboli uchun kurashayapsiz. Fidoyisiz. Lavhalaringiz noyob, ayrimlari bebaho. Sizdek malakali, iste'dodli xodimni istagan nashr jon-jon deb ishga oladi.

Umringizni shu sevimli kas-

bingizga butun ko'chu ko'roni bilan bagвЂћishlagansiz. Aytarli aybingiz ham yo'q. Lekin baribir bo'shatishga majburman. Gap - bitta. Tamom, imzo cheking-da, xayrlashing!

Janob bosh muharrirning bu xurmacha qilgвЂћini angolmay karaxt bo'lib qolgan suratkash ko'nglidan arzimagan soniyalar ichida sovuq-sovuq o'ylar o'tdi. Rahbarining chimirilgan qoshlari va tushkun kayfiyati ta'sirida qanday qilib qogвЂћozga imzo qo'yib yuborganini bilmay qoldi. Faqat eshikdan chiqib ketayotganda, sal o'ziga kelib so'radi:

- Nima balo! Birorta lavhada siyosiy xatoga yo'l qo'yibmanmi?

- Ey, qanaqa odamsiz, aytdim-ku! Hech qanday nuqson yo'q. Xudo haqqi, - deya stolga zarb bilan urib, sapchib o'rnidan turdi. Suratkashni yashin urgandek battarraq qaltiroq tutdi. - Tushimda bo'shatibman! Vassalom!

вЂњNima, tushingizda meni bo'shatganingiz uchun lotoreyadan mashina yutibsizmi?вЂќ, deb so'ramoqchi edi-yu, labini tishladi. Hayotdan arazlagan bolaga o'xshab xo'mraydi va вЂњXayr, rahmat...вЂќ degancha chiqib ketdi. Janob bosh muharrir shu zahotiyoyq barcha (suratkash ish so'rab borishi mumkin bo'lgan!) gazetalarning boshliqlariga sim qoqib, mabodo suratkash ish izlab borsa, turli sabablarni ro'kach qilib, ishga olmasliklarini iltimos qildi. Hammasi bir oгѓbzidan uning istagini tasdiqlashdi, qat'iy va'dalar berishdi...

Suratkashning mahzun holatini ko'rib, kotiba(yoshi o'tizlarda, qop-qora sochlari uzun, hali ham o'n olti yosh qizlardek yasan-tusan qiladi, istarasi issiq, ba'zan shim, ba'zan yubka kiyib yuradi, turmushga chiqmagan) garchi allaqachon voqeadan xabar topgan bo'lsa-da, (kotibalarning bir qulogвЂћi hamisha boshliq eshidiga bo'ladi!), go'yoki xavotir aralash: вЂњVoy... aka, tinchlikmi, ish- qilib?!вЂќ - deb so'radi. Suratkash biroz o'zini o'nglab, jilmaydi: вЂњKetayapman! Tush ko'rishga!вЂќ

II

Sobiq bosh suratkash uyiga keldiyu, yuzlariga ketma-ket tarsaki tortib yubordi. O'ziga-o'zi so'zladi: вЂњAytgandim-a, o'sha Gulmat Alimovichni suratga olma, deb! Mana, oqibat! Ey sho'tumshuq, axir u bundan o'n besh yilcha oldin sudlangandi-ku! Nega shunga aqling yetmadni? Yer ostida mitti chuvalchangning qaerga qimirlashini ikki kun oldin sezadigan boshliq shu oddiy narsani bilmaydimi?! Bilgan, shuning uchun ham bo'shatgan. Endi nima qildim... Qamab yuborishmasa bo'lidi. Yoshim nechada? O'ttiz... xullas, qamashadi. Lekin ortimdan yiygвЂћlab boruvchi bolalarim bormi?! Erta-indin o'ttiz... yashar bo'ydoq qamalibdi, degan gap chiqsa, ota-onam qanday bosh ko'tarib yuradi? Yo'gвЂћ-ey, endi shunga ham qamashsa, tavba qildim-ey...вЂќ

U ertasiga, indiniga ham kuni bilan yuragini hovuchlab ish izladi. Hammasi xuddi kelishib olgandek, bir xil tarzda iymanibgina вЂњbo'sh o'ren yo'qвЂќligini aytdi.

Suratkash bir necha kun davomida uyiga shumshayib qaytdi. Bir omad ketsa, o'pirilib, вЂњarmiyabвЂќsi bilan ketarkan-da. Bir tomonda ota-ona hayron... Har kuni hakka tezak cho'qimay turib, ishga otlanuvchi o'gвЂћillari kamnamo bo'lib qoldi.

Tinchlikmikan?! Ular ham bir zumda o'gвЂћlining ishdan bo'shatilganligini bilib qolishdi. Shahar sharoitida yashash oson emas, ota-ona besh farzandini uyli-joyli qilguncha ancha qarib qolishdi. Oltinchi farzandi sal o'zgacharoq chiqdi, tantiqroq chiqdi.

Bolani o'z holiga tashlab qo'yish kerakmasmikan...

Ihsiz suratkash ikki oy davomida duch kelgan gazetaga suratlarini sotib, uncha-muncha to'y-hashamda xizmat qilib, tirikchilik qilgandek bo'ldi. Biroq shuncha vaqt o'zini aldab yasholmasligi oydinlashavergach, achchigвЂћi chiqib, orada bir fursat fotoapparatini вЂњqoziqqa ilibвЂќ qo'ydi. Unga shuncha yil o'qib-o'rganib, oxir-oqibat havaskorlar qatori uch-to'rt so'mlik choychaqa ilinjida to'yama-to'y sangвЂћib yurishi, duch kelgan redaktsiyaga yolvorib suratini o'tkazishi alam qila boshladи. U o'ziga har zamonda va'da berardi: вЂњShoshmay turinglar! Hali men shunday bir surat olamanki, uning oldida mana-man deganlari ham ip esholmay qoladi!вЂќ U har bir muvaffaqiyatsizlikda shu gapni so'zma-so'z takrorlashga o'rganib qoldi...

...Yozning ajoyib kunlari nihoyalab, kuzak keldi. Suratkash deyarli ishlamay qo'ygandi - taqdirda tan berib, endi biror qurilish yoki maktabda chizmachilikdan dars beraymikan, deb turganda, Janob bosh muharrir chaqirib qoldi!

## III

Suratkash ertasi kuniyoq tahririyatga yelib bordi. O'ziga qolsa-ku, bormasdi. Hatto telefonda vaqtini ketkazib gaplashib ham o'tirmasdi. Biroq nima qilsin, yashash uchun ba'zan bosh egib turish ham kerakmi... U tanish ko'chaldan piyoda o'tarkan, yo'l-yo'lakay turfa fikrlarga oshno tutindi. Balki ba'zi (suratkash qilmagan, lekin yana bosh muharrirning tushiga kirgan) ayblarni bo'yninga ilib, mazax qilish uchun chaqirgandir. Axir aniq aytmadidi-ku. Qisqa qilib, вЂњSyurr-prizz bor! вЂњ deb qo'ydi, xolos.

Janob bosh muharrir suratkash bilan sovuqqina so'rashdi. Xuddi ashaddiy jinoyatchining qo'lini siqayotgandek xunukkina iljayib ham qo'ydi. Suratkashni muzdek ter bosdi.

- Eshitishimcha, гЂbirt bekorchi emishlar?

Sobiq xodim bosh silkib javob berdi.

- Bir shart bor... Xo'p deb, uddasidan chiqolsangiz, hammasi joy-joyiga tushishi mumkin.

Suratkashning yuzi yorishib, uch oy so'lgб€binlikka asir bo'lgan ko'zlar chaqnab ketdi go'yo. Rozi ekanligini bir amallab bildirdi.

- Uch kun muhlat beraman. Chotqol togб€блари etagidagi qishloqlardan biriga borib, tongotar mahalidagi holatni suratga tushirib kelasiz. Borish-kelish, yeb-ichishingiz, hordiq chiqarishingizni ta'minlaymiz. Bir tiyinsiz yurbaningizni yaxshi bilamiz axir... Xo'sh, kelishdikmi?

Keyin Janob bosh muharrir suratkashga ertaga uni bir yigit tahririyat ostonasida kutib olishi va uch kunlik вЂњtongotar missiyasi вЂњ munosib ado etishiga ko'maklashishini tushuntirdi. Suratkash xursandligidan boshliqni bagb€riga boscisi kelib ketdi, garchi o'zi haydab, yana o'zi chaqirayotganiga tushunmayroq turgan bo'lsa-da, shuncha vaqt so'kib, yozgb€birib kelgani bosh muharrirni sira yomonlagisi kelmay qoldi.

Eshikdan chiqib ketayotganida, odatdagidek kotiba so'z qotdi: вЂњTinchlikmi..., aka? Biz tomonga qadam ranjida qilibsiz? вЂњ. Suratkash bopladiimmi, degandek ishshayib turgan kotibaga yaxshilab nazar tashladi. (Shodligidanmi yoki shundaymi) ko'zlar qarshisida juda kelishgan bir mohiliqo nozlanib turgandek bo'ldi, bir necha soniya ko'zlarini uzolmay qoldi. Kotiba ham jim. Kutilmaganda boshliq xonasidan chiqib qolmaganida, kim biladi, kun bo'yi bir-biriga termulib turaverisharmidi...

## IV

Murodali (qoshlari siyrak, burni kattaroq, quloqlari katta, ammo shalpaymagan, peshonasi keng, yuzi qizgb€himtir tusda, bo'yi uzun) degani navqiron yigit ekan. Yoshi ham u qadar katta emas, yigirma yettilardan sal kam yoki oshgan. O'zi xushchaqchaq, gapga usta ekan. Bitta kamchiligi - shaharga ko'nikolmas ekan. Ming qilsa ham qishloq bolasi-da, shaharning ko'zni quvontirar imoratlariyu, mo"jizaviy bogb€бларни nazarga ilmay, otamakoniga talpinaveradi. O'sha biydek dalalarini, sayhonliklarini sogb€binaveradi. Suratkashga ogb€блzi-ogb€блziga tegmay qishlogb€ини maqtaydi. U chinakam togб€блlik, tanti va mard deyishganicha bor. Suratkash nega avvalroq shunday qishloqlar, qishloqliklar hayoti bilan qiziqmadi?! Shuncha yil viloyatma-viloyat izgb€ bib, aqalli bir marotaba yon-veriga nazar tashlasa bo'lardi-ku.

Suratkash gavjum shahardan olislashib, osmono'par Chotqol togб€блари sari borarkan ana shular haqida o'ylab, o'tgan umrini o'zicha sarhisob qilardi... Bunday o'zgarish, o'z-o'zini tadqiq qilish nogahon unga yoqib qoldi.

Yo'l doshining qishlogb€блiga odamlar asr namoziga taraddudlangan bir paytda kirib borishdi. Loyshuvvoq uylardan, pastqam devor bo'gb€блotlaridan, sadarayhonlaru jambillar kulib turgan hovlilardan haqiqiy o'zbek xonadonining bo'yi anqiydi.

U bir kun mobaynida qishloqni o'zicha o'rgandi, o'zicha tahlil qildi.

## V

Qishloq tamaddundan ming yillarcha orqada qolib ketgan dunyonni eslatardi. Odamlarining soddaligi, so'zga bo'shligi, fikrlash doirasining вЂњqo'y-qo'ziyu, dehqonchilik вЂњ mavzusidan nariga o'tmasligi suratkashning bir kulgisini, bir yigb€ини keltirardi. Lekin Murodalidek ongi shakllangan, dunyo ko'rgan yigitning shunday aholi orasidan chiqishiga suratkashning ishongisi kelmasdi. Qishloqliklar tongdan to tungacha, erta bahordan to kech kuzakkacha daladan uzilmaydi. Dardini ham, quvonchini ham togб€ин tosh, dalalar bilan baham ko'radi. Hosilni ko'tarib olar-olmas qor yogb€ bib beradi. Bu holatlar suratkashga kechqurun uyquga ketib, kechqurun uygb€блонувчи odamni (u odam aslida kim ekanligini suratkash keyinroq anglatdi!) eslatardi. Tongdan, hayotning o'yin-kulgularidan bebahra. Qishloqliklar quyosh вЂњtugb€блар вЂњ joydayu, ammo quyosh nuri tushmaydi. Faqat mehnat, mehnat!

Aftidan bu qishloq ahli juda ishonuvchan. Soqollari oyogb€ини o'payozgan chollari ham allaqanday afsonlarga ishonib, so'lim choyxonalarda bir-biri bilan tortishib o'tiradigandek tuyuldi mehmonga. Agar ularga biron galstuk taqib, boshiga shlyapa qo'ndirgan salobatli odam: вЂњBilib qo'yinglar, quyosh sharqdan emas, гЂbarbdan chiqadib вЂњ, - desa chippa-chin ishonib ketaverishadi. Aslida ularga quyoshning qaerdan chiqib, qaerga botishi qiziq emas, chiqib tursa bo'lgani!

Murodali yosh bo'lismiga qaramay, shu qishloqning kattakonlaridan biri. Oshib borsa, ugina tashqari chiqqan, yurt ko'rgan. Ba'zi ayollar haligacha chachvonona tikilgan ro'mollarni bostirib o'rab yurisharkan, ehtimol changdan saqlanar. Qizlari ostona hatlab uyidan bir qadam uzoqlashsa, otasidan so'kish, onasidan qargb€ биш eshitadi.

Qishloq ahli bagb€блrikeng, mehmono'st xalq. Bisotidagi, bolalaridan yashiruvchi ne'matlarni mehmoniga tutar, o'zlarining oyda-yilda etga bir ogb€блzi tegsa, mehmon uchun qo'y so'yar ekan. Suratkashni bu holat uzoq o'ylantirib qo'ydi, nima uchun va qanday qilib yaxshi bilmagani-tanimaganini shunday iliqlik bilan kutib oladi?! Balki u qishloqning kulini ko'kka sovurish uchun kelgandir... Ular juda гЂbururli, past ketib o'tirmaydi.

Bu yerda uch ming nafarga yaqin aholi yashaydi. Har bir oilaning kamida uchtadan, o'rtacha beshtadan, ko'pi bilan... bir etakcha bolasi bor ekan. Buni bilib suratkashning yuragi battar ezildi. Bir tomonidan qishloqning serfarzandligi, ikkinchi tomonidan o'zining qirqqa yaqinlashgan esa-da, bo'ydoqligi so'roq qilgandek bo'ldi. Bolali ota-onaning ko'zlarini kulib turadi, zerikish bilmaydi, bekorga yashamaydi... O'sha mushtdekkina Murodalining ham to'rtta tuyogb€ини bor ekan.

## VI

Suratkash вЂњqishloqshunoslik вЂњ chalg'b€ bib, asosiy topshiriqni esdan iqraroyzganini o'yladi-yu, xavotirga tushdi. Axir unga

2 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

qishloqni o'rganishmas, tongotarni suratga tushirish buyurilgan. Buni bitta suratkash yodidan chiqargan desak, Murodali ham unutganov, ish tutmayapti.

Suratkash fotoapparatini o'qlab, havas bilan Murodalining beshikdag'i ingrab yotgan o'gb'Tolini suratga oldi. Polvoncha juda chirolyi yigb'Tlardi. Shunga mast bo'lib, besh-oltita kadrni sarfladi. Murodalini, keyin xotini bilan, so'ng bola-chaqalari bilan suratga tushirdi. Kechga tomon kun botishi go'zalligini tomosha qildi-yu, o'zini tiya olmadi. U chindan ham go'zal manzara edi - suratga olmaslikning ilojsi yo'q.

Suratkash qishloqqa keldi-yu, arzimas muddat ichida naq bir yuz sakson gradusga o'zgardi. Avvallari ko'ziga o'lgudek hissiz va xunuk tashlangan oddiy unsurlar ham boshqacha ko'rina boshladi. U go'yo hayot ekanligini, tiriklar ichra tirik ekanligini his qila boshladi. Anvoysi gullar, qo'y-qo'zilar, daraxtlar, togb'Tlar, soyalar... Ularni shunchaki kuztib bo'ladi?! Suratkash shu oniy lahzalar ichida atrofiga oddiy odam nigohi bilan qaray boshladi. Ehtimol o'sha qishloq, o'sha soddagina qishloq suratkashga ko'zgu tutayotgandir?! Qani, shu tobda imkonni bo'lsa-yu, ichki olamini qo'porib yuz berayotgan o'zgarishlarni suratga tushirs, ular shubhasiz, dunyodagi go'zal fotolar bo'lardi.

Safarning ikkinchi kuni ham u Murodali hamrohligida qishloq kezdi, odamlarning suhbatini oldi. Ayrimlarining xonadonida mehmon bo'ldi. Har bir uuda hayot qadrini anglayotganini, sekin-asta uygb' Bonayotganini nishonlardi.

...Suratkash uygb' Tonganda, quyosh allaqachon yotogb'Tidan ikki nayza bo'y ko'tarilib ulgurgandi, buning ustiga boshi tuni mehmonnavozlik v'Th'mevab'Tksi - chirpirak bo'lib aylanardi. U shu tariqa peshingacha yotdi. Sal tobiga kelgach, o'rnidan gandiraklab turdi-da, yelkasiga sochigb'Tini tashlab, tashqari chiqqdi. Olis-yaqindan so'fining azon aytayotgani eshitilardi.

Murodalining xotini hovlining bir burchagida kuymalanib yurgan shekilli, v'Th' Allohu akbar! v'Th'ki eshitishi hamonoq jum o'tirib olgan. Namozning hurmati - qishloqliklar qilayotgan ishini bir lahza to'xtatib tin oladi. Suratkash ham buni angladi va cho'kkaladi. Murodalining xotiniga boqib o'tirib, suratkash qalbida ismsiz tuygb'Tular jo'sh ura boshladi. Bir necha muddat xayolidan kotiba qizning u kungi nozli tabassumi ketmay qoldi...

Azon tugagach, mehmon yuz-qo'lini yuvdi. Murodalining xotini allaqachon nonushtani tayyorlab qo'yan ekan. Endi dasturxonga o'tirganda, Murodali ikki qo'ltigb'Tida katta tarvuz va qovun quchoqlab kelib qoldi. Kechikkan nonushta tarvuzxo'rlikka, keyin qovunxo'rlikka ulandi.

- Qani, aka, choyingizni xo'plang. Endi bir togb'Tlarimni ko'rsatay. Solih cho'ponga ul-bulni tayinlab qo'yanman, o'sha tomonga jo'naymiz. Bir dam olaylik.

Oradan yarim daqiqa o'tib-o'tmay ikkovlon eshikda turgan v'Th' UVAZv'Tkga o'tirdi. Mashina ortidan quyuq chang qoldirib, ildamlab ketdi.

Shunday qilib, uchinchi kun tong otari boy berildi. Endi to'rtinchi kun qolishga majbur. U so'nggi kun, so'nggi imkoniyat bo'ladi.

## VII

Chotqol togb'Tlarining ta'rifi yo'q. Bir ko'rishda oshiq bo'lish hech gapmas. Shu togb'Tlar bagb'Trida mangu qolib ketgisi keladi odamning. Yon bagb'Tirlarida qo'ngb'Tiroqchalarini jaranglatib o'tlab yurgan qo'y-qo'zilar otari, ikki dara oraligb'Tida qirgb'Toqdan-qirgb'Toqqa urilib oqayotgan sho'x soyi, qishu yozda o'z e'tiqodiga sodiq qoluvchi yam-yashil archalari tortgan ajoyib saf, o'ydin-chuqur tuproqli yo'llari, sutdek pok, musaffo havosi ham nihoyatda noyob, nihoyatda nafis. Bunday xushmanzara makonlarni ko'rgan, tomosha qilganlar o'zlarini bir umr baxtiyor sanab yurishsa, shu yerliklarni kim deb atash mumkin?!

Solih cho'ponning chaylasi qishloqdan ancha uzoqda, yuksak cho'qqilardan birining yelkasida ekan. Mehmonlar u yerga shom mahali yetib kelishdi. Quyuq kutib olindi. Shaharlik mehmon izzatiga bir qo'y dumalatildi. Asl biyalardan sogb'Tib olingan toza qimizdan simirish suratkashni yana bir karra karaxtlik olamidan uygb'Toqlik dunyosiga olib chiqqandek bo'ldi.

Gulxan atrofidagi o'yin-kulgi, ko'ngilochar hangomalar bilan andarmon bo'lib, hash-pash deguncha tong yaqinlashib qoldi. Hal qiluvchi pallar tobora yaqinlashmoqda: tongotarni nima qilib bo'lsa ham suratga mixlash kerak. Axir ertaga boshliq so'roq qilganda, nima deydi, yegan-ichgani burnidan chiqmaydimi?!

Suratkash tongotarni suratga tushirishdan ham oldin uni tomosha qilishga, o'z ko'zi bilan kuzatishga, uning ilohiy lobarligidan ilhomlanishga, bahra olishga qiziqib qoldi. U deyarli barcha tabiat ajoyibotlarini ko'rди, kunbotar latofati ham ajoyib, rad etib bo'lmas darajada fusunkor. Biroq ming qilsa ham tongotar nazokati bilan belasholmasligini suratkash ich-ichidan sezib turardi. U tongni uxlamay kutdi. Atrofida pishillagancha uyquni urayotganlarga qarab o'zicha qaygb'Turdi. Kutganda vaqt sekin o'tadi, sabri chidamay, fotoapparatini bo'yniga ilib, chaylani tark etdi. Ochiq havoga chiqishi bilan muzdekk bogb'T shamoli dimogb'Tini chogb'Tladi, etini junjuktirdi. U telba oshiqqa, tabiat go'zalligining, hayot nafosatining devonasiga aylanib qolgandi.

Xuv narida taxminan Solih cho'pon, tunni bedor o'tkazishiga qaramay, otar bilan borardi...

Murodali sergak yotgan ekan, suratkashning ortidan chiqib keldi, yo'ldosh bo'ldi.

- Aka, tabiatga mahliyo bo'lib, sogb'Tliqni unutmang, uxlamadingiz axir...

- Ey Murodjon, bilasizmi, bu go'zalliklarni ko'rmay o'ttiz... yil uxlaganim yetar.

Ular shu tariqa balandparvoz ohangda suhbattashgancha, tongotarning eng quyuq ko'rinish joyini izlab, chayladan yiroqlashib ketdi. O'shanday pallada, tongotar qalinlashib, eng dilbar nuqtasiga yetgandi.

Tongotar! Oqsoch togb'Tlar ortidan mo'ralayotgan taram-taram nur-tolalarning jimirlarini ta'riflashga til ojiz. Uning bir uchi to'ppa-to'gb'Tri yurakka tutashib ketayotgandek taassurot uygb'Totadi. Go'yo zabonsiz va bosiqligi bilan mashhur cho'qqilar ortidan bir nozli farishta chiqib keladi-yu, butun olamni ziyoga, ko'ru chiroyga burkab tashlaydi. Maysalarga, toshqin soylarga, vazmin jilgb'Talarga, hatto toshlarga jon kirgandek tabiat yayrab ketadi. Tun bo'yi tongotarni intiq kutgan qushlarning mitti tomirlariga qon yuguradi. Zaminning eng kichik a'zolari - chumolilar tashqari chiqib, tirkchilik ko'yida safarga otlanadi. Suratkash xayolida tongotar yer yuzida hayot, uygb' Bonish elchisi sifatida sodir bo'layotgandi!

U bir necha fursat jonsiz haykaldek tikilgancha qotib turdi.

Murodali bu tobda mehmonining nima uchun qishloqqa kelganini eslatmoqchi bo'ldi:

- Suratga olmaysizmi, hozir ulgurolmay qolasi?!

Curatkash esa kutilmaganda shunday javob qildi:

- To'gb'Tri, mo"jizalar uzoq davom etmaydi, ularning qiymati ham shunda. Ozu soz. Bilasizmi, tongotarni rasmga olmaslikka qaror qildim, shunday hurlikni kichik bir qutiga joylashga qo'lim bormaydi. Odamlarning tongotar jamolini suratlarda ko'rib, tasavvur hosil qilib yurishlariga chek qo'yish kerak. Tokay uni o'z ko'zlari, tasavvuri bilan ko'rsin!

This is not registered version of TotalDocConverter

VIII

U sochilib, bir holatda yotgan xonalarini yig'bishtirdi, o'zi supurdi. Keyin durustroq taom tayyorladi. U juda shod edi. U uzicha shahardagi eng baxtiyor odam, eng omadli suratkash edi. Mayli, uddalanmagan vazifa tufayli Bosh muharrir ishga qayta olmasin. U endi to'rt kun avvalgi suratkash emas, u uygbishtoq suratkash, endi nima qilishni biladi.

Tongda dadil-dadil qadam tashlab, boshliq huzuriga kirib bordi. Janob bosh muharrir negadir bugun uni xushchaqchaqlik bilan kutib oldi. Murodali bilan obdon suhbatlashgan chogbasi, suratkashning qishloqda boshidan kechirgan sarguzashtlarni birma-bir o'ziga qaytarib so'zlab berdi.

- Xo'sh, shunday qilib, iltimosimiz bajarilmabdi-da, a?

- Nega bajarilmas ekan? Bajarildi!

- Ie, nima deganagingiz bu?

- Men tongotar chogbasi insonlar qatori yuragimga, ruhimga muhrladim. Illojisini topolsangiz, gazetada yuragimni bosa qoling... Janob bosh muharrir xoxolab kulib yubordi. U ham aslida shuni kutgandi. Hayotdan bezgan, go'zalliklardan bahra olishni bilmaydigan, ishdan boshqasini o'ylamaydigan suratkashni yaxshi ko'rgani va uning hissiz qalbida bebafo umrga, tobora nurab borayotgan yoshlikka nisbatan muhabbat tuygbishtularini uygbishtotish uchun atayin bishayfsanbosh, bishaytongotar missiyasibosh singarilarni uysushtirgandi. Bu sayohat ehtimol suratkashning o'sha o'zi orzu qilgan asari bo'ldi. Bosh muharrir yuzidan nur yogbilib, ko'ksining dukurlari jaranglab turgan suratkashga hotirjam boqib dedi:

- Mayli, yuragingiz o'zingizga siylov. Boring, bemalol ishingizni davom ettiravering. Ha, aytgancha, o'sha kuni men sizni bo'shatmagandim, kassirdan maoshingizni ham olishni unutmang.